

ISSN: 3093-9275

ZAMONAVIY ILM-FAN

VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

J U R N A L I



ILMIY YONDASHUV



INNOVATSIYA



TARAQQIYOT

2026

01 (02)

SON



BOSH MUHARRIR: Uralov Azamat Begnarovich

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi, Tillar, pedagogika va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Email: Azamaturalov06@gmail.com

TAHRIRIYAT KENGASHI:

*Navro'zova Gulchehra Nigmatovna
Agzamxodjayeva Shaxnoza Saidmatlabovna
Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna
Gularam Kamilovna Masharipova
Abdullayeva Dilnoza Narzullayevna
Valiyeva Feruza Rashidovna
Xajiyeva Maksuda Sultanovna
Abdullayev Utkir Ismailovich
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li
Xolmirov Begali Abdixamidovich
Normatov Ibroximali Xolmamatovich
Axmedova Muyassar Xadimatovna*

***Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazrligining 2024 yil 31 yanvardagi***

***24 sonli qaroriga binon jurnal quyidagi
bazalarda indekslanadi***

*(11) ResearchBib,
(12) Directory Indexing of
International Research Journals-
CiteFactor,
(14) Directory of Open Access*

**ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION
TADQIQOTLAR INSTITUTI**

KONTAKTLAR:

*Toshkent viloyati, Piskent tumani,
Do'ng'go'rg'on MFY, Mustaqilligi ko'chasi, 41-
uy*

+998 955868893

zamonaviyilmfanjurnali@gmail.com

*Multidistsiplinar ochiq kirishga ega ilmiy jurnal
ISSN: 3093-9275 ga ega Zamonaviy Ilm-Fan va
Innovatsion Tadqiqotlar Jurnali bo'lib u*

01.00.00 — Fizika-matematika fanlari

02.00.00 — Kimyo fanlari

07.00.00 — Tarix fanlari

08.00.00 — Iqtisodiyot fanlari

09.00.00 — Falsafa fanlari

10.00.00 — Filologiya fanlari

12.00.00 — Yuridik fanlar

13.00.00 — Pedagogika fanlari

19.00.00 — Psixologiya fanlari

22.00.00 — Sotsiologiya fanlari

*sohalari va tegishli fanlar bo'yicha maqolalarni
chop etishni ta'minlaydi.*



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RASM CHIZISHGA O'RGATISH

Z.F.Azizova.

“University of economics and pedagogy” NOTM
professor v.b., p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatishning pedagogik-psixologik asoslari, metodik tizimi va amaliy mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, «Ilk qadam» Davlat o'quv dasturi, yetakchi o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda rasm chizish ko'nikmalarini shakllantirish bosqichlari, noan'anaviy chizish texnikalarining ahamiyati va tasviriy faoliyat orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalalari yoritilgan. Muallif tomonidan taklif etilgan “Rasm chizish ko'nikmalarining yosh bosqichlari bo'yicha shakllanish dinamikasi” jadvali va “Noan'anaviy chizish texnikalarining tasnifi” orqali mashg'ulotlar samaradorligini oshirish yo'llari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: rasm chizish, tasviriy faoliyat, maktabgacha ta'lim, noan'anaviy chizish texnikasi, ijodiy qobiliyat, «Ilk qadam» dasturi, estetik tarbiya, grafomotor ko'nikmalar.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические и психологические основы, методическая система и практические механизмы обучения детей дошкольного возраста научно-теоретическому рисованию. Также, на основе Государственной образовательной программы «Первый шаг», научных исследований ведущих узбекских и зарубежных ученых, освещаются этапы формирования навыков рисования в соответствии с возрастными особенностями детей, важность нетрадиционных техник рисования и вопросы подготовки детей к школьному обучению посредством визуальной деятельности. Пути повышения эффективности занятий обосновываются с помощью предложенной автором таблицы «Динамика формирования навыков рисования по возрастным этапам» и «Классификации нетрадиционных техник рисования».

Ключевые слова: рисование, визуальная деятельность, дошкольное образование, нетрадиционные техники рисования, творческие способности, программа «Первый шаг», эстетическое воспитание, графомоторные навыки.

Abstract. This article analyzes the pedagogical and psychological foundations, methodological system and practical mechanisms of teaching preschool children to draw scientifically and theoretically. Also, based on the State Educational Program "First Step", scientific research of leading Uzbek and foreign scientists, the stages of formation of drawing skills in accordance with the age characteristics of children, the importance of non-traditional drawing techniques and the issues of preparing children for school education through visual activities are highlighted. Ways to increase the effectiveness of



classes are substantiated using the table "Dynamics of formation of drawing skills by age stages" and "Classification of non-traditional drawing techniques" proposed by the author.

Keywords: drawing, visual activity, preschool education, non-traditional drawing techniques, creative abilities, "First Step" program, aesthetic education, graphomotor skills.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni rasm chizishga o'rgatish nafaqat ularning badiiy-estetik didni shakllantirish, balki umumiy intellektual rivojlanish, mayda motorika, fikrlash qobiliyatlari va hissiy sohani rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan joriy etilgan «Ilk qadam» Davlat o'quv dasturida "Ijodiy rivojlanish" sohasi bolalar kompetensiyalarining asosiy tarkibiy qismlari sifatida belgilangan. Zero, bola rasm chizish jarayonida nafaqat tasvir yaratadi, balki atrof-olamni o'rganadi, o'z his-tuyg'ularini ifodalaydi, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallaydi. [1; 42-bet].

V.A.Suxomlinskiy ta'kidlaganidek: "Bolaning ongi uning qo'li uchida. Barmoqlar qanchalik mohir bo'lsa, bola shunchalik aqlli bo'ladi" [2, 67-bet]. Ushbu iqtibos tasviriy faoliyatning bolaning umumiy rivojlanishidagi o'rnini chuqur anglatadi. Rasm chizish jarayonida bola nafaqat badiiy mahorat, balki analitik tafakkur, fazoviy tasavvur, diqqatni jamlash va maqsadga erishish irodasini ham rivojlantiradi. [3; 53-bet].

Rasm chizish maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada UNESCO ekspertlari tomonidan ta'kidlanganidek, "San'at orqali ta'lim – teatr, musiqa, rasm orqali dunyoni o'rganish – uyg'un shaxsni shakllantirishning eng samarali usulidir" [4].

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatish masalalari O'zbekiston pedagog olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Shuningdek, Rasm, buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi" nomli o'quv qo'llanmada bolalarni san'atga oshno qilish, ularga go'zallik tuyg'usini singdirish ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan [5]. Ushbu qo'llanmada maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyatiga rahbarlik qilishning maqsad va vazifalari, badiiy faoliyat qobiliyatlari va ijodini tarbiyalash, oilada va maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning tasviriy faoliyatiga rahbarlik



qilish usullari, rasm chizish, loy ishi, applikasiya va qurish-yasashga o'rgatish usullari, tasviriy san'at bilan tanishtirish metodikasi haqidagi bilimlar batafsil yoritilgan.

M.A.Abdullayevaning tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot orqali ijtimoiylashtirish masalalari tahlil qilingan bo'lib, unda tasviriy faoliyatning bolalar nutqi va fikrlashiga ta'siri ham ko'rsatib o'tilgan[6; 55-bet].

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatish masalalari xorijiy psixologiya va pedagogikada ham keng tadqiq etilgan. Jumladan, L.S.Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasida bolalarning tasviriy faoliyati ularning psixologik rivojlanishida muhim o'rin tutishi, rasm chizish orqali bola o'z tasavvurlarini ifodalash va ijodiy fikrlashni rivojlantirishi ta'kidlangan [7; 45-bet].

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatishda noan'anaviy texnikalardan foydalanish ularning ijodiy faolligini oshirishi, tasviriy fikrlashni rivojlantirishi va bolalarda ijodiy erkinlikni shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy tadqiqotlarda alohida ta'kidlanadi [8; 29-bet].

K.K.Utrobina va G.F.Utrobinalarning "Pok usuli bilan maftunkor chizish" nomli metodik qo'llanmasida noan'anaviy chizish usullari orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

A.A.Fateyevaning "Biz cho'tkasiz chizamiz" nomli metodik qo'llanmasida bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan noan'anaviy rasm chizish usullari tizimlashtirilgan.

Ramírez Barreda, Solovieva va Quintanar Rojas tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda rasm chizish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish dasturi samarali natija berishi ilmiy jihatdan asoslangan. Mualliflar ta'kidlaganidek: "Maktabgacha yosh – bu psixologik rivojlanish va maktabga tayyorgarlik uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan davrdir. Maktabgacha yoshda shakllanishi kerak bo'lgan faoliyat turlaridan biri – tasviriy faoliyat bo'lib, u maktabgacha yoshdagi bolaning umumiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Bolalarni tasviriy faoliyatga jalb qilish – bu ularning nafaqat maktabda, balki umuman hayotda muvaffaqiyatini belgilovchi mustahkam neyropsixologik asosni shakllantirish uchun zarur qadamdir" [11; 68-bet].

Tiffany Shuang-Ching Lee tomonidan Tayvanda o'tkazilgan tadqiqotda rassom-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan "Sehrli chiziqlar" studiya dasturi tahlil qilingan. Ushbu dastur maktabgacha yoshdagi bolalarga rangli bo'rlar yordamida yangi ranglar yaratish imkoniyatlarini o'rgatishga qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra,



hikoya aytish va tasviriy san'at yondashuvlarini uyg'unlashtirish bolalarning ijodiy kuzatuv va tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi [12].

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatish jarayoni ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Quyida turli yosh guruhlarida rasm chizish ko'nikmalarining shakllanish dinamikasi keltirilgan:

Yosh guruhi	Psixologik xususiyatlar	Rasm chizish ko'nikmalari	Qo'llaniladigan usullar	Kutiladigan natija
Kichik guruh (3-4 yosh)	Predmetli faoliyat, taqlidga moyillik, hissiy idrok	Chiziqlar, shtrixlar, doirasimon harakatlar	Barmoq bilan chizish, kaft bilan chizish, tayyor shakllarni bo'yash	Qog'oz varag'ida iz qoldirish, ranglarni farqlash
O'rta guruh (4-5 yosh)	Obrazli tafakkur, syujetli o'yinga qiziqish	Oddiy shakllarni chizish, predmetlarni tasvirlash	Kartoshka, sabzi bosmalari, paxta cho'plari, mo'yqalam	Oddiy predmetlarni (quyosh, uy, daraxt) tasvirlash
Katta guruh (5-6 yosh)	Murakkab tasavvur, badiiy did, kompozisiya	Murakkab shakllar, syujetli rasmlar	Monotip, klyaksografiya, plastilinografiya, nam qog'ozda chizish	Syujetli kompozisiya yaratish, nisbatlarga rioya qilish
Tayyorlov guruhi (6-7 yosh)	Mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur	Perspektiva, ranglar uyg'unligi, detallashtirish	Shishaga chizish, grattaj, ip bilan chizish, sovun pufakchalari	Ijodiy kompozisiya yaratish, maktabga tayyorgarlik

1-jadval. Rasm chizish ko'nikmalarining yosh bosqichlari bo'yicha shakllanish dinamikasi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bolalarning yoshi o'tgan sari rasm chizish ko'nikmalari murakkablashib, ijodiy komponentning ulushi ortib boradi. Agar kichik guruhda bolalar asosan qog'ozda iz qoldirish, ranglarni farqlashga o'rgatilsa, tayyorlov



guruhida ular mustaqil ijodiy kompozitsiyalar yaratish, maktab ta'limiga tayyorgarlik ko'rish darajasiga yetadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatishda noan'anaviy texnikalar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu usullar bolalarning qiziqishini oshiradi, ulardagi chizmaslik qo'rquvini yo'qotadi, tasvirning ekspressivligini ta'minlaydi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Quyidagi jadvalda noan'anaviy rasm chizish texnikalarining tasnifi keltirilgan:

Texnika guruhi (yoshi)	Texnika nomi	Qisqacha tavsifi	Ijodkorlik komponenti
Barmoq va kaft bilan chizish 3-4 yosh	Barmoq bilan chizish	Barmoqlarni bo'yoqqa botirib, iz qoldirish	Hissiy ifoda, sensorika
3-5 yosh	Kaft bilan chizish	Kaftni bo'yoqqa botirib, iz qoldirish	Obrazli tafakkur, tasavvur
Bosma texnikalar 4-5 yosh	Kartoshka bosmasi	Kartoshkadan shakllar kesib, bosma olish	Shakl idroki, kompozitsiya
4-5 yosh	Sabzi bosmasi	Sabzidan turli shakllar kesib, bosma olish	Ritm, takrorlash
5-6 yosh	Barglar bosmasi	Quruq barglarga bo'yoq berib, iz qoldirish	Tabiatni kuzatish, rang uyg'unligi
5-7 yosh	Ko'pikli bosma	Ko'pik qoliplardan foydalanib bosma olish	Faktura, tekstura
Grafik texnikalar 5-7 yosh	Monotip	Bir tomonlama bosma, oynadagi aks	Simmetriya, fantaziya



5-7 yosh	Klyaksografiya	Doglarni puflab, tasvir hosil qilish	Tasavvur, assosiativ fikrlash
6-7 yosh	Grattaj	Qora fonni tirnab, rangli qatlamni ochish	Grafika, kontrast
Aralash texnikalar 5-7 yosh	Plastilinografiya	Plastilin bilan "bo'yash", hajmli tasvir	Hajm, shakl, motorika
5-7 yosh	Ip bilan chizish (nitkografiya)	Bo'yalgan ipni tortib, iz qoldirish	Noan'anaviy tasvir, fantaziya
6-7 yosh	Sovun pufakchalari	Sovun pufakchalarini qog'ozga bosish	Tajriba, noan'anaviylik
5-7 yosh	Tuz bilan chizish	Ho'l bo'yoq ustiga tuz sepish	Faktura, rang o'yinlari

2-jadval. Noan'anaviy rasm chizish texnikalarining tasnifi.

Noan'anaviy rasm chizish texnikalarining afzalliklari quyidagilardan iborat:

bola "men chiza olmayman" degan qo'rquvdan xalos bo'ladi, ya'ni undagi qo'rquvni yo'qotishga yordam beradi;

har xil harakatlar (bosish, surtish, puflash, tirnash) mayda motorikani turli tomonlama rivojlantiradi;

noan'anaviy texnikalar bolalarni stereotiplardan chiqishga, yangi yechimlar izlashga o'rgatadi, ya'ni ijodiy fikrlashga o'rgatadi;

turli texnikalarni o'zlashtirish bolalarda maqsadga erishish irodasini, boshlagan ishni oxiriga yetkazish odatini shakllantiradi;

bolalar turli materiallar va usullarni sinab ko'rish, tajriba o'tkazish imkoniga ega bo'ladilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni rasm chizishga o'rgatishda tarbiyachining kasbiy mahorati, uning bolalar psixologiyasini bilishi va ijodiy yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:



rivojlantiruvchi muhit yaratish; buning uchun esa guruh xonasida bolalarning mustaqil badiiy faoliyati uchun sharoit yaratish, turli xil materiallar (bo'yoqlar, qalamlar, plastilin, tabiiy materiallar) bilan ta'minlash;

ko'rgazmali materiallar tanlash; bunda esa bolalarning yosh xususiyatlariga mos, sifatli va estetik jihatdan boy ko'rgazmali materiallardan foydalanish.

har bir bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rasm chizish usullarini tanlash va taqdim etish, ya'ni usullarni to'g'ri tanlash;

bolalarning har qanday ijodiy urinishlarini qo'llab-quvvatlash, ularda o'z kuchiga ishonch hosil qilish; bu bilan tarbiyachi joiy muhit yaratishga erishadi;

bolalarning rasm chizish jarayonini kuzatib borish, zarur paytda yordam berish va yo'naltirish.

Rasm chizish maktabga tayyorgarlikning quyidagi jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

Qo'lni yozuvga tayyorlash. Rasm chizish jarayonida qo'lning mayda muskullari rivojlanadi, harakatlar muvofiqlashuvi yaxshilanadi, bu esa keyinchalik yozuv malakalarini o'zlashtirishga zamin yaratadi.

Diqqatni jamlash. Rasm chizish diqqatni bir joyga to'plashni, boshlagan ishni oxiriga yetkazishni talab etadi, bu esa o'quv faoliyati uchun zarur bo'lgan irodaviy sifatlarini shakllantiradi.

Fazoviy tasavvur. Rasm chizish jarayonida bolalar predmetlarning fazodagi o'rnini, nisbatlarini, perspektivasini anglay boshlaydilar, bu esa matematika va geometriyani o'zlashtirishga yordam beradi.

Nutq rivojlanishi. Rasm chizish jarayonida bolalar o'z ishlari haqida hikoya qilish, savollarga javob berish, tasvirlash orqali nutqlarini rivojlantiradilar.

Ijtimoiy-emosional rivojlanish. Rasm chizish bolalarga o'z his-tuyg'ularini ifodalash, boshqalarning ijodiga hurmat bilan qarash, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Rasm chizish maktabgacha ta'limning boshqa sohalari bilan integrasiyalashgan holda olib borilsa, samaradorlik yanada oshadi. Quyida rasm chizishning boshqa ta'lim sohalari bilan integrasiya imkoniyatlari keltirilgan:



Ta'lim sohasi	Integrasiya mazmuni	Misollar
Nutq o'rtirish	Rasm asosida hikoya tuzish, tasvirlash, badiiy asarlarni rasmga solish	Ertak qahramonlarini chizish, rasm asosida hikoya tuzish
Matematika	Shakllar, o'lchamlar, fazoviy munosabatlar, sanash	Geometrik shakllarni chizish, predmetlarni simmetrik joylashtirish
Atrof-olam bilan tanishish	Tabiat hodisalari, jonli va jonsiz tabiat, ijtimoiy hayot	Fasllarni, hayvonlarni, kasblarni rasmga solish
Musiqa	Musiqa asarlari ta'sirida rasm chizish, kayfiyatni ranglarda ifodalash	Musiqa sadolari ostida erkin rasm chizish
Jismoniy tarbiya	Mayda motorika, harakatlar muvofiqlashuvi	Barmoq gimnastikasi, rasm chizishga tayyorgarlik mashqlari

3-jadval. Rasm chizishning ta'lim sohalari bilan integrasiyasi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rasm chizish jarayonida nafaqat badiiy-estetik did, balki mayda motorika, tafakkur, xotira, diqqat, irodaviy sifatlar, nutq va ijtimoiy-emosional soha ham rivojlanadi. Rasm chizishga o'rgatish bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Kichik guruhda sensor tajribalar, ranglar bilan tanishish; o'rta guruhda oddiy shakllarni chizish; katta va tayyorlov guruhida esa murakkab kompozitsiyalar yaratish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish ustuvor bo'lishi kerak.



Noan'anaviy rasm chizish texnikalari bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Barmoq bilan chizish, monotip, klyaksografiya, plastilinografiya, grattaj kabi usullar bolalardagi chizmaslik qo'rquvini yo'qotadi, tasvirning ekspressivligini ta'minlaydi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Qo'lni yozuvga tayyorlash, diqqatni jamlash, fazoviy tasavvurni rivojlantirish, nutq faolligini oshirish – rasm chizish orqali shakllanadigan va maktab ta'limi muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillardir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari va metodistlari uchun quyidagi tavsiyalarni keltirib o'tmoqchimiz: har bir yosh guruhi uchun rasm chizish ko'nikmalarini shakllantirishning uzoq muddatli va istiqbolli rejalarini ishlab chiqish, ularda an'anaviy va noan'anaviy usullarning uyg'unligini ta'minlash; guruh xonalarida bolalarning mustaqil badiiy faoliyati uchun "Ijodkorlik markazlari"ni tashkil etish, ularni turli xil materiallar (akvarel, guash, pastel, sangina, ko'mir, plastilin, tabiiy materiallar) bilan boyitish; har bir yosh guruhi uchun mos noan'anaviy rasm chizish texnikalarini tanlash va ularni mashg'ulotlar tizimiga bosqichma-bosqich kiritish. Masalan, kichik guruhda barmoq va kaft bilan chizish; o'rta guruhda kartoshka, sabzi bosmalari; katta va tayyorlov guruhida monotip, klyaksografiya, plastilinografiya, grattaj kabi murakkab texnikalarni qo'llash; rasm chizishni nutq o'stirish, matematika, musiqa, atrof-olam bilan tanishish kabi boshqa ta'lim sohalari bilan integrasiyalashgan holda olib borish; ota-onalar uchun "Bolani rasm chizishga qanday o'rgatish kerak?" mavzusida maslahatlar, ochiq mashg'ulotlar, master-klasslar tashkil etish, ularni bolalar bilan birgalikda ijodiy faoliyatga jalb qilish; bolalarning rasm chizish ko'nikmalari va ijodiy qobiliyatlarini baholashning aniq mezonlari va diagnostika metodikalarini ishlab chiqish; tarbiyachilarning tasviriy faoliyat metodikasi bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish, ularni yangi texnika va usullar bilan tanishtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Jabborov A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatish metodikasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2022. –42- b.

Suxomlinskiy V.A. Bolalarga yurak bag'ishlab. – Toshkent: "O'qituvchi", 1985. – 67- b.

Karimova D. Maktabgacha ta'limda bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. – Toshkent: "Fan", 2023. – 53-b.



UNESCO. System of Arts Education in Uzbekistan. – 2021. – <https://webarchive.unesco.org/web/20210625051615/http://ae.cis.iite.unesco.org/observatory/index.php/en/uzbekistan/system-of-arts-education>.

Nurmatova M.Sh. va Hasanova Sh.T. Rasm, buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi: O‘quv qo‘llanma. – Chirchiq: CSPU, 2023. – <http://yangi.cspu.uz/kutubxona/7-141>.

Abdullaeva M.A. O‘yin mashg‘ulotlarini boshqarish orqali maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim yoshdagi bolalar faolligini oshirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 54- b.

Vygotsky L.S. Imagination and Creativity in Childhood. – Moscow: Prosveshchenie, 1967. – P.45.

Xo‘jamqulova N. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida noan‘anaviy rasm chizish texnikalaridan foydalanish // Maktabgacha ta‘lim. – 2023. – №4. – B. 29.

Утробина К.К., Утробин Г.Ф. Увлекательное рисование методом тычка с детьми 3–7 лет. – Москва: Издательство «Гном и Д», 2008. – 64 с.

Фатеева А.А. Рисуем без кисточки. – Ярославль: Академия развития, 2004. – 96 с.

Ramírez Barreda M.R., Solovieva Y., Quintanar Rojas L. The effects of the method of formation of drawing on the acquisition of graphic activity in preschoolers // Современное дошкольное образование. – 2024. – Vol. 18, №5. – P. 68.

https://searchworks.stanford.edu/articles/edsdoj__edsdoj.6d5ca699a4f44ac7bd3392392d4f41f

Lee . T.S.C. Magic Lines: Artist-Teachers‘ Preschool Art Studio Curriculum Design and Implementation // Arts and Creativity in East and Southeast Asian Preschools. – Springer, 2025. – DOI: 10.1007/978-981-96-2524-6_8.

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR INSTITUTI




ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI

2026-yil Iyun 1(2) son

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR” jurnali 14.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-56699005 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 31-yanvardagi 24-son qaroriga binoan jurnal quyidagi bazalarda indekslanadi: Manbalar:



Toshkent viloyati, Piskent tumani, Do‘ngqo‘rg‘on MFY, Mustaqilligi ko‘chasi, 41-uy
+998 955868893

zamonaviyilmfanjurnali@gmail.com